

Yuridik shaxs
bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
INT_G00006945/02_-sonli Abonent shartnomasi

UHF

Namangan sh.

"15" iyul 2022

1. Keyingi o'rinlarda "Operator" deb yuritiluvchi "O'zbektelekom" AK (keyingi o'rinlarda matnda "Kompaniya" deb yuritiladi) nomidan 2021 yil 5 yanvardagi 27-01-14/27-sonli ishonchnoma asosida harakatlanuvchi "O'zbektelekom" AK Namangan filiali direktori B.Nurmatov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Abonent" deb yuritiluvchi UHF byurolar byurolar B-DU-UU nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma, ishonchnoma) asosida harakatlanuvchi Ch. Kozubova ikkinchi tomondan, bundan keyin alohida "Tomon", birgalikda esa "Tomonlar" deb yuritiladi, telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etish uchun ushbu Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagilar haqida tuzdilar.

1.1. Ushbu Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolangan paytdan boshlab Abonent (shu jumladan uning hududiy vakolatxonalari va filiallari) bilan avval tuzilgan shartnomalar yuridik kuchini yo'qotadi.

2. Abonent ushbu Shartnomani imzolab, rasmiy saytda e'lon qilingan "O'zbektelekom" AKning Ommaviy oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Shartnoma tuzadi. Abonent Ommaviy oferta matni bilan tanishadi (Ommaviy ofertaning to'liq matni Operatorning savdo ofislarida, Operator Agentlarining savdo ofislarida va Operatorning rasmiy WEB-saytida joylashtirilgan). Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjatni olishi Operatorning Ommaviy ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilish (akseptini) hisoblanadi.

3. Ushbu Shartnoma Abonent tomonidan imzolanganidan so'ng Operator texnik imkoniyatlarning mavjudligini tekshiradi. Agar texnik imkoniyat mavjud bo'lsa, Operator Shartnomani o'z tarafidan imzolaydi va Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilgandan so'ng Abonent avans to'lovini amalga oshirishi mumkin. Texnik imkoniyat mavjud bo'lmagan taqdirda va Operator Shartnoma imzolanganiga qadar ushbu hujjat Abonentning telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi arizasi hisoblanadi.

3.1. Abonentni ulash shartlari va telekommunikatsiya xizmatlariga tariflar (narxlar) ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ilovalar bilan belgilanadi va ushbu Shartnoma kuchga kirgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi:

1-ilova. Ko'rsatiladigan xizmatlar:

- "Mobil aloqa xizmatlari uchun tarif rejalari (telefoniya, ma'lumotlar uzatish, VAS)";
- "Internet tarmog'iga doimiy korporativ kirish xizmatlar uchun tarif rejalari (KPK, IP telefoniya, VPN)";
- "IPTV xizmatlari uchun tarif rejalari";
- "Virtual xostingning" xizmatlari uchun tarif rejalari";
- "Bulutli videokuzatuv" xizmatlari uchun tarif rejalari";
- "Umumiy foydalanishdagi telefoniya xizmatlari uchun tarif rejalari (TIOP, PSTN)".

2-ilova. Ishni qabul qilish va ajratilgan ulanishni sinash dalolatnomasi.

3.2. Abonent tomonidan Operator taqdim etadigan xizmatlar ro'yxatining tanlashiga qarab, tomonlar bitta ilovani rasmiylashtirishlari mumkin.

3.3. Tomonlar amaldagi ilovalaridan birining o'rniga yangi ilovani imzolagan taqdirda, biringisi tomonlar ushbu Shartnomaga qo'shimcha bitim imzolagan paytdan boshlab tomonlar uchun o'z kuchini yo'qotadi.

4. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlarning qiymati ilovalarga muvofiq belgilanadi.

4.1. Tariflar Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'imlarni o'z ichiga oladi.

4.2. Shartnoma miqdori ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan ilovalarga muvofiq taqdim etiladigan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi va:

QQSni	hisobga	olgan/olmagan	holda	<u>720 000</u>
(<u>05650 03 00001 00 0000</u>)			so'zni tashkil etadi, u esa QQSni hisobga olgan/olmagan holda <u>720000</u> (<u>05650 03 00001 00 0000</u>) miqdorida abonent to'lovini hamda QQSni hisobga olgan/olmagan holda () miqdoridagi bir martalik to'lovni o'z ichiga oladi.	

4.3. Ushbu Shartnoma / abonent to'lovi miqdori oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summanning miqdori tomonlar tomonidan imzolangan qo'shimcha kelishuv taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

4.4. Abonent keyingi hisob-kitob davri (hisobot oyi) boshlangunga qadar oldindan to'lovning 100 (yuz) foiz sharti bilan har oyda xizmatlar uchun to'lovni amalga oshiradi. Ushbu to'lov Shartnomaning 7-bandida ko'rsatilgan Operatorning shaxsiy hisob raqamiga pul mablag'larini ko'rsatilgan xizmatlar turini hisobga olgan holda, tanlangan hajm va tariflar/tarif rejalari muvofiq o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.5. Xizmatlardan foydalanish uchun abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni mobaynida amalga oshiriladi. Birinchi ulanishda abonent to'lovi summasi o'yning qolgan kunlari uchun qayta hisoblash yo'li bilan yechiladi. Avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda Shartnoma asosida tegishli ilovada ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

4.6. Agar Abonentning shaxsiy hisobvarag'ida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni to'xtatishi mumkin. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan foydalanilmaganlik fakti Abonent uchun ularni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi.

4.7. Operatorning Reklama aksiyalar davomida Abonentga taqdim etiladigan barcha bonuslar ko'rinishidagi mablag'lar

faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida qaytarilmaydi.

4.8. Taqdim etilgan xizmatlar ushbu Shartnomaga tayangan holda taqdim etilgan xizmatlarning har bir turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan ilovalariga muvofiq taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi. Agar 5 (besh) ish kuni mobaynida Abonent o'z da'volari yozma shaklda yoki faks orqali taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan deb hisoblanadi. Abonentning da'volari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi oyda taqdim etiladigan xizmatlar uchun to'lov talabnomasida (hisobida) tegishli tuzatishni amalga oshiradi.

5. Abonent Ommaviy oferta qoidalariga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi. Ommaviy ofertada ko'rsatilgan Shartnomaning barcha muhim shartlari (shartnoma predmeti, tariflari va xizmat turi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, hisob-kitoblarning shakli va tartibi, javobgarlik va boshqalar) Ommaviy ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

6. Ushbu Shartnoma Abonent tomonidan Ommaviy oferta aksept qilingan (imzolangan) paytdan boshlab kuchga kiradi va 2021 yil 31 dekabrigacha amal qiladi. (byudjet oluvchi abonent uchun ushbu Shartnoma tegishli davlat organlarida tomonidan ro'yxatga olinishi kerak). Bunda, agar Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugagandan so'ng tomonlar o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, byudjet oluvchi va yuridik shaxs tashkili etmagan yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan abonentlar uchun Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

6.1. Ushbu Shartnoma, jumladan, Operatorning rasmiy saytida e'lon qilingan Ommaviy oferta, ilova va qo'shimchalar, agar mavjud bo'lsa, Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

6.2. Ushbu Shartnoma shartlari va Ommaviy oferta shartlari o'rtasida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan taqdirda, Ommaviy oferta shartlari va qoidalari ustun kuchga ega bo'ladi.

6.3. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlari o'zgarish taqdirda, shu jumladan mulkdorning, tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda, Shartnoma o'z kuchida qoladi. Shu bilan birga, tomonlar 10 (o'n) kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

6.4. Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan bo'lsa va ushbu harakatlarga vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan, tomonlarning muhrlari bilan bosib tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

6.5. Ushbu shartnoma o'zbek tilida, 2 (ikki) nashxada, har bir tomon uchun bittadan tayyorlangan.

7. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

Operator	Abonent
AK «Узбекителеком»	13-DU110
Namangan viloyat Namangan shahar Istiqlol kuchasi 57-uy STIR:203266731 MFO:00874 HUF:61100 Hr: 2021 0000 0040 7483 8173 "Aloqabank" ATB e-mail: b2b@uztelecom.uz Tel: 1155	Manzil: <i>Халовуи. Д. Храмов 2892</i> Tel: <i>69 95 215 80</i> Faks: HR: <i>1000 218 6014 2047082300 075001</i> Bank: <i>Точка 107 ХДУ</i> MFO: <i>16014</i> STIR: <i>202037610</i> HUF: <i>23402 600 3001 6000 1010</i> Kvart: <i>2011 22 919</i> LOT:

Imzo:

MJ



Handwritten signature

Huquqlashtiruvchi

Handwritten signature and number 102 001293.

Imzo:

MJ



Nizmatlar

I. Nizmatlar ro'yxati va ular uchun tariflar

U'zbekeysh Respublikasi

№	Nizmatlar ro'yxati	QQS bilan narx (qiymat)	uzatish	miqdor	miqdori, QQS bilan, so'm
1	2	3	4	5	6
I. Bir martaalik to'lovlar					
1.1	Ro'yxatdan o'tish va ulanish	80 000.00	buyruq	1	80 000.00
II. Oylik to'lovlar					
2.1	Tuzilgi 4 Mb/s bo'lgan ma'lumotlarni uzatish tarmog'ida Internetga ulanish tarifi Corporate-1	240 000.00	Narxlar ro'yxati	1	240 000.00
	00:00:00 dan 19:00:00 gacha Internetga ulanish tezligi: 1 mb/s gacha				
	19:00:00 dan 00:00:00 gacha Internetga kirish tezligi: 1 mb/s gacha				
	Jami (oldindan to'lov)				240 000.00

Jami oldindan to'lov: 240 000.00 so'm, 00 triya

Shu jumladan QQS: 15%.

Shartnoma miqdori _____ (_____) so'm, oylik obuna to'lovini o'z ichiga oladi _____ (_____) so'm. Agar shartnoma miqdori oshib ketgan bo'lsa, ortiqcha miqdori har oyda to'lanadi.

“ Operator ”

“ Abonent ”

“O'zbektelekom” AK



[Signature] / Nurmatov B. N.
M.L.

Direktor



Мингбулок тумани 13-сонли ДИМИ билан АК "Ўзбектелеком" Наманган филиал боғلامаси уртасидаги тузилган 2022 й 15.01
 00005945/02 сонли шартномага асосан тахсимот 2022 йил

№	Ойлар	Жами шартнома бўйича				Шу жумладан			
		миқдори нукта	нархи	Базавий сума	Хаммаси	миқдори	Базавий сума	Индексация	Хаммаси
1	январ	1	240000	240000	240000				
2	феврал	1	240000	240000	240000				
3	март	1	240000	240000	240000				
	1-чорак			720000	720000				
4	апрел								
5	май								
6	июн								
	2-чорак								
7	июл								
8	август		4						
9	сентябр								
	3-чорак								
10	октябр								
11	ноябр								
12	декабр								
	4-чорак								
	Жами йиллик	1		720000	720000				



Хизмат кўрсатувчи билан бар:
 Билан кўрсатувчи билан бар:
 (муҳр) *Muhammad*



Ф.Каримова
 3.Кулайсиддинов